

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALR VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida  
UDK: 331.5(575.1)**

**ZAXIDOVA SHIRIN SHIRZATOVNA**

**UNIVERSITETLAR REYTINGINI OSHIRISH VA OLIY TA‘LIM  
XIZMATLARINING SIFATINI YAXSHILASH YO‘NALISHLARI**

**08.00.01 – “Iqtisodiyot nazariyasi”  
08.00.05 - “Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)  
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan  
D I S S E R T A S I Y a**

**Ilmiy maslahatchi:** iqtisodiyot fanlari doktori, professor A.V. Vaxabov

**Toshkent – 2024 y.**

## MUNDARIJA

	<b>KIRISH.....</b>	<b>4</b>
<b>I BoB.</b>	<b>OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORI RIVOJLANISHI-NING NAZARIY ASOSLARI.....</b>	<b>17</b>
1.1.	Oliy ta'lim bozorini shakllanishi va amal qilish xususiyatlari.....	17
1.2.	Universitetlarning raqobatbardoshligi va xalqaro reytinglari.....	48
1.3.	Ta'lim reytingining shakllanishi va ko'rsatkichlar tizimining rivojlanish bosqichlari.....	70
1.4.	Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	82
<b>II BOB.</b>	<b>JAHONDA OLIY TA'LIM REYTING TIZIMINI JORIY ETISH HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....</b>	<b>83</b>
2.1.	Universitetlarning mustaqilligini kengaytirish va ta'lim sifatini oshirishning ustuvor yo'nalishlari.....	83
2.2.	Germaniya oliy o'quv yurtlari reytingini aniqlash amaliyotining xususiyatlari.....	92
2.3.	MDH mamlakatlarida OTMlar reytingi aniqlash amaliyoti holati va rivojlanish tendensiyalari.....	99
2.4.	ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	111
<b>III BOB.</b>	<b>O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMINI ISLOH ETISH YO'NALISHLARI.....</b>	<b>113</b>
3.1.	O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida reyting tizimini joriy etishning huquqiy-institusional asoslari.....	113
3.2.	Davlatning oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishdagi o'rni.....	135
3.3.	“Covid-19” pandemiyasining ta'lim tizimi sifatiga ta'siri..	150
3.4.	Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	161
<b>IV BOB</b>	<b>O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM XIZMATLARI SIFATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....</b>	<b>163</b>
4.1.	Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish va universitetlar faoliyatini takomillashtirish ssenariyalari.....	163
4.2.	Xalqaro andozalar asosida universitetlarni shakllantirish va oliy ta'lim sifatini yaxshilashning yo'nalishlari.....	187

4.3.	Universitetlar reytingini oshirish asosida oliy ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilashning uzoq muddatga mo'ljallangan muqobil ssenariyalari prognozlari.....	209
4.4	To'rtinchi bob bo'yicha xulosa.....	221
	<b>XULOSA.....</b>	<b>223</b>
	<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....</b>	<b>230</b>
	<b>ILOVALAR.....</b>	<b>247</b>

## KIRISH

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon xo‘jaligining globallashuvi sharoitida taraqqiy etgan mamlakatlarda ta‘lim sifatini yaxshilash, inson kapitalini taraqqiy ettirish, milliy iqtisodiyotni innovasion rivojlanish yo‘liga o‘tkazish, jumladan, uning raqobatbardoshligini oshirish, barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash va aholi turmush darajasini yuksalishining muhim sharti bo‘lib qolmoqda. iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ma'lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda aksariyat mamlakatlarda ta'limning qamrov darajasini oshirish va uni sifatini yaxshilashga ustuvorlik qaratilmoqda. Jumladan, 25-34 yoshdagi aholi tarkibida oliy ma'lumotilarning ulushi bo‘yicha Koreya Respublikasi (69,8 foiz), Kanada (64,4 foiz), Rossiya (62,1 foiz), Yaponiya (61,5 foiz) kabi mamlakatlar jahonda etakchi o‘rinlarni egallaydilar.<sup>1</sup> Ushbu mamlakatlar amaliyotida oliy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘zining ijobiy natijalarini ko‘rsatmoqda

Jahonda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda oliy ta'lim xizmatlari sifatini oshirish, mutaxassislar malakasini o‘zgarib borayotgan mehnat bozori talablariga moslashtirish, rivojlanayotgan innovasion iqtisodiyotda faol ishtirok etishga layoqatli va aholi farovonligini ta'minlashga qodir yuqori kasbiy malakali ko‘nikmaga ega bo‘lgan etuk kadrlarni tayyorlash, oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reyting ko‘rsatkichlarini takomillashtirish va ularning raqobatbardoshlik darajasini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga ustuvorlik qaratilmoqda. Jumladan, innovasion iqtisodiyotni rivojlanishi sharoitida oliy ta'lim xizmatlarining qamrov darajasini oshirish, uning sifatini takomillashtirish, jumladan, oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reyting baholash tizimlaridagi tutgan o‘rnini yaxshilashning ilmiy-nazariy echimlarini topish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarda oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, oliy ta'lim muassasalarining nufuzli xalqaro reytinglarga kirishini ta'minlash, jumladan, ularni bosqichma bosqich akademik va

---

<sup>1</sup> Population with tertiary eduCation. <https://data.oeCd.org/Chart/5HC6>

moliyaviy sohadagi mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan islohotlarga ustuvorlik qaratilmoqda. Ushbu holat oliy ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi sog'lom raqobat kurashini rag'batlantirish bilan birgalikda, ta'lim sifatini oshirish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o'rta muddatli istiqbolda "oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga etkazish va ta'lim sifatini oshirish, 2026 yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta'lim muassasasini QS va THE kirishini ta'minlash, nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari sonini kamida 50 taga etkazish"<sup>2</sup> kabi qator ustuvor vazifalar belgilab berildi. o'rta muddatli istiqbolda amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan islohotlar bugungi kunda mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini yaxshilash, ularning xalqaro reytinglardagi ishtirokini kengaytirish o'z echimini kutayotgan dolzarb, ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muammolar qatoriga kirishini anglatadi.

Ushbu tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 martdagi PF-5687-son «Xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilashga oid chora-tadbirlarni tizimlashtirish to'g'risida»gi, 2019 yil 11 iyuldagi PF-5763-son «Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmonlari, 2019 yil 17 iyundagi PQ-4358-son «2019-2023 yillarda mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391-son «Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2021 yil 24 dekabrdagi PQ-60-son «Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi

---

<sup>2</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони, 28.01.2022 й. <https://lex.uz/doCs/5841063>

Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi «Oliy ta’lim muassasalari reytingini aniqlash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 467-son, 2019 yil 3 dekabrda «Oliy ta’lim muassasalarini bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish to‘g‘risida»gi 967-son qarorlari va ushbu yo‘nalishdagi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga mosligi.** Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining i. “demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish” ustivor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

### **Dissertasiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy – tadqiqotlar sharhi.** <sup>3</sup>

Universitetlarning xalqaro reyting ko‘rsatkichlarini oshirish va oliy ta'lim xizmatlari

---

<sup>3</sup> Paul Orsmond, Stephen merry, Kevin Reiling. (2022) interConneCted learning between university and the workplaCe: a soCio-Cultural perspeCtive of graduate employability in the UK. Oxford Review of EduCation 48:3, pages 303-319; daniela Olo, leonida Correia, maria da ConCeição Rego. (2022) (mis)matCh between higher eduCation supply and labour market needs: evidenCe from Portugal. Higher EduCation, Skills and Work-Based learning 12:3, pages 496-518.; OECD (2017), in-depth Analysis of the labour market RelevanCe and OutComes of Higher EduCation Systems: AnalytiCal Framework and Country PraCtiCes Report, Enhancing Higher EduCation System PerformanCe, OECD, Paris. 2017. 163 p. <https://www.oecd.org/education/skills-beyond-school/lmro%20report.pdf>; EduCation at a GlanCe 2019 OECD indiCators. Retrieved deCember 25, 2019, from/https://www.oecd-ilibrary.org/education/education-at-a-glanCe2019\_f8d7880d-en; Cheng, M., Adekola, O., Albia, J. and Cai, S. (2022), "Employability in higher education: a review of key stakeholders' perspeCtives", Higher EduCation Evaluation and development, vol. 16 No. 1, pp. 16-31. <https://doi.org/10.1108/HEEd-03-2021-0025>; Al-Awad, A. , Bazuhair, R. , Alhojaly, R. and mossawa, m. (2020) The Compatibility of Higher EduCation OutComes with the Requirements of the labour market in an interior design Programme in the Kingdom of Saudi Arabia. Art and design Review, 8, 94-113. doi: 10.4236/adr.2020.82007.; menon, m. E., Argyropoulou, E., & Stylianou, A. (2018). managing the link between Higher EduCation and the labour market: PerCeptions of Graduates in GreeCe and Cyprus. Tertiary EduCation and management, 24, 298-310.<https://doi.org/10.1080/13583883.2018.1444195>; Управление системой высшего образования в Российской Федерации: организационно-правовые аспекты: монография // А.Ю. Александров, С.В. Барабанова, С.Б. Верещак, О.А. Иванова. Под общей редакцией А.Ю. Александрова Чебоксары: Изд-во Чуваш. ун-та, 2017. 196 с.; Полицук Е.А. Регулирование рынка труда молодёжи: теория, методология, практика. // Автореферат дисс. на соис.уч.ст. д.э.н. 2018. 46 с.; Вольчик, В. В., Жук, А. А., Фурса, Е. В. (2021). Механизмы преодоления институциональных ловушек в сфере образования и науки. // Journal of Institutional Studies, 13(1), 135-155. doi: 10.17835/2076-6297.2021.13.1.135-155; Шкуратова М.В. «Глобализация и конвергентная трансформация экономики высшего образования в современной России» // Автореферат. Дисс.на соис. к.э.н. 2020. 28 с.; Иванова Ю.О. «Механизмы формирования и развития имиджа образовательных организаций высшего образования» // дисс.на соис. к.э.н. 2019. 207 с.; Бобиев А. К. «Механизм обеспечения конкурентоспособности образовательных учреждений государственного сектора высшего образования» (на материалах Республики Таджикистан) // дисс.на соис. к.э.н. 2018. 198 с; Гуртов В. А., Кекконен А. Л. «Модели средне-срочного прогнозирования спроса экономики на квалифицированные кадры» // Кадровик. Рекрутинг для кадровика. 2010. № 4. URL: <http://www.lawmix.ru/bux/950/>; dixon, P., «Dynamis, general equilibrium modelling for foreCasting and poliCy: a praCtiCal guide and doCumentation of MONASH» // P. Dixon, m. Rimmer, // North-Holland/Elsevier. – 2002. p. – 338; Смирнов, В. М. «Прогнозирование потребностей экономики в трудовых ресурсах в профессионально-квалификационном разрезе: обзор зарубежного опыта» // В. М. Смирнов, М. В. Рязанцева // Современные научные исследования и инновации. – 2017. – № 3. – Режим

sifatini yaxshilashning metodologik muammolari, jumladan, oliy ta'lim xizmatlarini o'zni, ahamiyati, ta'lim xizmatlari eksporti va malakali kadrlarni tayyorlashda ish beruvchilar tomonidan qo'yiladigan malaka talablari, ko'nikmalari va malakalai mutaxassislariga bo'lgan talabni prognozlashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar jahonning etakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida, jumladan, Princeton University (AQSh), Edge Hill University (Buyuk Britaniya), Tongji University (xitoy xalq Respublikasi), Monash University (Niderlandiya), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), Umumjahon banki, Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti, Rossiya oliy iqtisodiyot maktabi, G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti va boshqa oliy o'quv yurtlari tomonidan amalga oshirilmoqda.

Jahonning yetakchi ilmiy markazlarida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotlarda quyidagi ilmiy natijalar olingan, jumladan: oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatishning sifat ko'rsatkichlari takomillashtirilgan (Princeton University, AQSh); mehnat bozoridagi yuqori malakali kadrlarga bo'lgan talab va taklif omillari tahlil etilib, muvozanat nuqtani aniqlash orqali oliy ma'lumotli kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini ish beruvchi talablariga moslashtirilgan (Edge Hill University, Buyuk Britaniya); oliy ma'lumotli kadrlar egallaydigan bilim, malaka, ko'nikmalari ko'paytirilgan (Umumjahon banki); milliy oliy ta'lim muassasalari reytinglarini ishlab chiqishda xalqaro reyting ko'rsatkichlarini yaxshilashga ustuvorlik qaratilgan (Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti, Rossiya oliy iqtisodiyot maktabi, G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti); universitetlarning moliyaviy va akademik sohadagi mustaqilligini ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi takomillashtirilgan (Tongji University, Xitoy xalq Respublikasi).

Dunyoda bugungi kunga kelib universitetlarning reyting ko'rsatkichlarini oshirish va oliy ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilashning metodologik muammolarini hal etish bo'yicha quyidagi yo'nalishlarida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda:

---

доступа: <http://web.snauka.ru/issues/2017/03/79358>; Жаров В.С., Щеглова А.Н. «Методика прогнозирования спроса на специалистов в системе высшего профессионального образования региона» Экономический анализ: теория и практика научный журнал. 12 (363) – 2014. 47-56 с

rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda oliy ta'lim tizimida «SMART-universitet» konsepsiyasidan foydalanishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash; oliy ta'lim xizmatlari sifatini oshirish bo'yicha o'rta va uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish; xalqaro ta'lim bozorida ta'lim xizmatlarini eksporti, oliy ta'lim indikatorlarini yaxshilashga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish; oliy ta'lim va davlat xususiy sheriklik mexanizmini rivojlantirish; oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining bandligini ta'minlashning samarali mexanizmini shakllantirish; professor-o'qituvchilarning intellektual salohiyatini oshirishga oid bo'lgan ilmiy tadqiqotlar davom ettirilmoqda..

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Oliy ta'lim xizmatlari sifatini oshirish, oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytinglardagi nufuzli universitetlar qatoridan o'rin egallashini ta'minlash, ularning akademik mustaqilligini kuchaytirishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari uzoq xorijlik T. Shuls, G. Bekker, F. Mizikasi, E. Hustad, D. Hopkins, B.J. Kolin, M. Tanaka<sup>4</sup> va boshqalarning tadqiqotlarida o'rganilgan.

MDH mamlakatlari olimlari V.A. Noskov, D.A. Ivanov, G.A. Krasnova, V.A. Bolotov, N.F. Efremova, E.K. Zashitina, G.Yu Gulyaeva<sup>5</sup> va boshqalar

---

<sup>4</sup>Schultz T.W. Investment in Education: Equity-Efficiency Quandary. –Chicago: University of Chicago Press, 1972. –P. 304; Becker G. The Human Capital. Chicago. 1964. –P. 285.; Mizikasi, F., 2006. A systems approach to program evaluation model for quality in higher education. Quality Assurance in Education, 14(1), pp.37-53; Hustad, E. and Arntzen, A.A.B., 2013. Facilitating teaching and learning capabilities in social learning management systems: Challenges, issues, and implications for design. Journal of Integrated Design and Process Science, 17(1), pp.17-35.; Hopkins D. Improving the Quality of Education for All Handbook of Staff Development Activities. 1<sup>st</sup> Edition. Published July 26, 2002 by Routledge. 144 P.; Colin B.J., Charles H. Improving Quality in Education. 1<sup>st</sup> Edition. Published December 2, 1999 by Routledge, 172 P; Tanaka M. Student Engagement and Quality Assurance in Higher Education; International Collaborations for the Enhancement of Learning. Published January 18, 2019 by Routledge, 192 P

<sup>5</sup>Носков В.А. Высшая школа в системе общественного воспроизводства. Автореферат. Дис. на соис уч. степ.д.э.н. Кострома – 2003. 38 с.;Иванов Д.А. Экспертиза в образовании: учеб. пособие для студ. высших учеб. заведений / Д.А. Иванов. – М.: Академия, 2008. – 336 с.; Краснова Г.А. Практическое руководство по созданию и сопровождению совместных образовательных программ / Г.А. Краснова, М.М. Малышева, Н.В. Сьюлькова. – М.: РУДН, 2011. – 118 с.; Болотов В.А. Ключевые вопросы развития национальных и региональных систем оценки качества образования (экспертный обзор) / В.А. Болотов [и др.]. – М.: Изд. дом Высшей школы экономики. – 2016. – 232 с; Ефремова Н.Ф. Обеспечения качества образования в условиях европейской интеграции: моногр./ Н.Ф. Ефремова, Б.Ч. Месхи, С.В. Шведова; Донской гос. техн. ун-т. – Ростов-на-Дону: ДГТУ, 2018. – 175 с.; Зашитина Е.К. Экспорт высшего образования: прикладное исследование: монография / Е.К. Зашитина, П.В. Павлов, Южный федеральный университет. – Ростов-на-Дону ; Таганрог : Издательство Южного федерального университета, 2019. – 184 с.; Инновационное развитие науки и образования: монография / Под общ. ред. Г. Ю. Гуляева – Пенза: МЦНС «Наука и Просвещение». – 2021. – 320 с.



tomonidan oliy ta'lim muassasalari faoliyatini rivojlantirishning fundamental va amaliy jihatlari tadqiq etilgan.

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimining holati, rivojlanishi va isloh etishning ustuvor yo'nalishlari G.N. Axunova, X.G. Alimdjanov, A.V. Vaxabov, E. Imamov, B.D. Kalmetov, M.X. Saidov, A.S. Kucharov, E.A. Seytxalilov, Sh.E. qurbonov, D.X. Nabiev, R.M. Usmonova, A.O. Eraliev, A.X. Eshbaev, N.R. Raxmonov, B. Usmonov, X.X. Rejapovlarning <sup>6</sup> ilmiy ishlarida tahlil qilingan. Biroq universitetlar reytingini oshirish va oliy ta'lim xizmatlarining sifatini yaxshilash muammolari umumlashtirilgan ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida etarli darajada o'rganilmaganligi, tadqiqot natijalarini nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga egaligi, ushbu tadqiqot mavzusining tanlanishiga asos bo'ldi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertasiya ishi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining «Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning konseptual asoslarini takomillashtirish» va A-01-2021-463 "Umumta'lim muassasalarida moliyaviy savodxonlik asoslari va qimmatli qog'ozlar bozorini o'rganish bo'yicha multimediya texnologiyalariga asoslangan

---

<sup>6</sup>Ахунова Г.Н. Таълим хизматлари бозорида маркетинг фаолияти ва уни такомиллаштириш: и.ф.д.илмий даражасини олиш учун ёзилган дис.автореферати – Т.: 2004. – 45 б.; Вахабов А., Иمامов Э. Высшее образование в Центральной Азии. Задачи модернизации. – М., 2007. – 214 с.; Алимджанов Х.Г. Ўзбекистон Республикасининг кадрлар тайёрлаш миллий дастури ва уни молиявий жиҳатдан таъминлаш масалалари: и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган ...дис. автореферати – Т. 2004. – 23 б.; Кальметов Б.Д. Образовательный комплекс в рыночной экономике. – Тошкент: Адолат, 2003. – 499 с.; Кучаров А.С. Тадбиркорлик соҳаси учун олий маълумотли мутахассисларни тайёрлашда бошқаришнинг ташкилий–иқтисодий омилларини такомиллаштириш: – и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореферати.–Т.; 2006.– 40 б.; Набиев Д.Х. Таълим соҳасидаги инвестицияларни молиялаштириш масалалари (Ўзбекистон ўрта–маҳсус, касб–хунар тизими мисолида) и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореферати.–Т; 2005.– 24 б.; Саидов М.Х. Экономика, инвестиции и маркетинг высшего образования.–Т. Молия, 2002.– 332с.; Курбонов Ш.Э., Сейтхалилов Э.А. Национальная модель и программа по подготовке кадров – достижение и результат независимости Узбекистана. – Т.: Маърифат – мадақдор. 2003. – 656 с.; Усмонова Р.М. Таълим хизматлари бозорида иқтисодий муносабатларни такомиллаштириш (олий таълим мисолида) и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореферати. – Т., 2011. 25 б.; Эралиев А.О. Таълим тизимининг иқтисодий бошқарув асосларини такомиллаштириш (ўрта–маҳсус, касб–хунар тизими мисолида) и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореферати.–Т., 2006.–24 б.; Эшбоев А.Х. Бозор муносабатларига ўтиш даврида таълим тизимининг миллий иқтисодий ривожлантиришга таъсири. и.ф.н. илм. дар. олиш ёзилган дис.автореферати. – Тошкент., 2008. – 25 б.; Рахмонов Н.Р. Минтақавий ижтимоий-иқтисодий ривожланиш асосида олий таълим тизимида кадрлар тайёрлаш сифатини ошириш. Иқт. фан. док. (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2019, 82 б.; Усмонов Б. Олий таълим, фан ва ишлаб чиқариш интеграциясини кластерли ёндашувлар асосида инновацион ривожлантириш. Монография. – Т., 2020 й. 148 б.; Режапов Х.Х. Олий таълим ва меҳнат бозори хизматлари ўртасидаги муносабатларни такомиллаштиришнинг методологик асослари. Иқт. фан. док. (DSc) дисс. автореф. – Андижон, 2023, 64 б.

o‘quv kursi platformasini yaratish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** universitetlarning xalqaro reyting ko‘rsatkichlarini oshirish asosida kadrlar raqobatbardoshligi, ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan tizimli ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- oliy ta'lim bozorining shakllanishi va amal qilishning ilmiy-nazariy asoslarini tahlil etish;
- oliy ta'lim muassalari raqobatbardoshligini tavsiflovchi xalqaro reyting ko‘rsatkichlari tizimi va ularning tarkibiy komponentlarini qiyosiy taqqoslash;
- jahonda oliy ta'lim sifatini yaxshilash islohotlarini amalga oshirishni ustuvor yo‘nalishlarini qiyosiy tadqiq etish;
- oliy ta'limda reyting tizimini joriy etilishi, holatini baholash va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash;
- xalqaro andozalarga mos keluvchi universitetlarni shakllanishi, rivojlanish tendensiyalari va muammolarini tahlil etish;
- jahon amaliyotida milliy reytingni aniqlash amaliyotini shakllanishi va rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash;
- O‘zbekistonda oliy ta'lim tizimini isloh etish va oliy ta'lim muassasalarida reyting tizimini joriy etishning huquqiy - institusional asoslarini tadqiq etish;
- oliy ta'lim muassasalarini davlat tomonidan moliyalashtirish, jumladan ularga moliyaviy va akademik sohalardagi mustaqillikni berishning ustuvor yo‘nalishlarini tahlil etish;
- “Covid-19” pandemiyasining oliy ta'lim tizimi sifatiga ta'sirini baholash;
- O‘zbekistonda oliy ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash va raqobatbardoshligini oshirish xolatini baholash va rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlari, ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish;

- uzoq muddatli istiqbolda mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytinglardagi ishtirokini faollashtirish bo'yicha muqobil ssenariyalarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimi faoliyati olingan.

**Tadqiqotning predmetini** iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirish va sifatini oshirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuidan iborat.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, qiyosiy taqqoslash, monografik tahlil va guruhlash, ekonometrik tahlil va prognozlashtirish usullari qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

nazariy - uslubiy yondashuvga ko'ra "universitet raqobatbardoshligi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatishda "ilm-fan – ta'lim – ishlab chiqarish" o'rtasidagi integratsion munosabatlar hamda xalqaro reyting ko'rsatkichlarining moliyaviy-iqtisodiy, marketing, moddiy-texnik, kadrlar va ijtimoiy-siyosiy xususiyatlarini umumiyashtirish orqali takomillashtirilgan;

talabalarning tegishli ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklari) bo'yicha ishlab chiqarish amaliyotlarini tarmoq (soha)ning muayyan korxonalar va tashkilotlarida shartnoma asosida talabaning amaliyot o'tish sifatining "qoniqarli", "yaxshi" va "a'lo" darajalariga mos ravishda mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga nisbatan tegishli ravishda 50 foizgacha, 51-70 foizgacha, 71-100 foizgacha miqdordagi tabaqalashgan haq to'lash amaliyotiga o'tkazish taklifi ishlab chiqilgan;

oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tan olingan nufuzli xalqaro reyting tashkilotlarining amaldagi ro'yxatida birinchi "TOP-1 000" talikka kirgan oliy ta'lim tashkilotlarini navbatdagi kompleks davlat akkreditatsiyasidan ozod qilish taklifi ishlab chiqilgan;

xalqaro tashkilotlarning ta'lim sohalari reytingida yuqori 200 talik ro'yxatiga kirgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining dasturi asosida maxalliy oliy ta'lim

muassasalarining ta'lim dasturlarini amaliy ixtisoslashuv trayektoriyalarini "Soft Skills"ga moslashtirish orqali qayta ishlab chiqish taklifi ilmiy asoslangan;

Umumtalim maktablari bitiruvchilarini oliy ta'lim xizmatlari bilan qamrov darajasini oshirishning 2024-2030 yillarga mo'ljallangan bazaviy, pessimistik va optimistik prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;

2030 yilgacha bo'lgan davrda oliy ta'lim sifatini va talabalarni o'qitish samaradorligini oshirish bo'yicha muqobil stsenariya prognozlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

- oliy ta'lim bozorining shakllanishi va amal qilish xususiyatlarining ilmiy-nazariy asoslari o'rganilgan;

- oliy ta'lim muassalari raqobatbardoshligini tavsiflovchi xalqaro reyting ko'rsatkichlari tizimi va ularning tarkibiy komponentlari tahlil etilgan;

- jahon amaliyotida oliy ta'lim sifatini yaxshilashning ustuvor yo'nalishlarini qiyosiy taqqoslangan;

- oliy ta'limda reyting tizimini joriy etilishi zaruriyati yoritilgan va uning hozirgi holati baholangan;

- xalqaro andozalarga mos keluvchi universitetlarni shakllanishi va rivojlanishidagi muammolar aniqlangan;

- O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini isloh etish va oliy ta'lim muassasalarida reyting tizimini joriy etishning institusional asoslari tadqiq etilgan;

- oliy ta'lim muassasalarini davlat tomonidan moliyalashtirish, jumladan ularga moliyaviy va akademik sohalardagi mustaqillikni berishning afzalliklari va salbiy jihatlari aniqlangan;

- "Covid-19" pandemiyasini oliy ta'lim tizimi sifatiga ta'siri baholangan;

- O'zbekistonda oliy ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash va raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari aniqlanib, ilmiy-uslubiy asoslari takomillashtirilgan;

- uzoq muddatli istiqbolda mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytinglardagi ishtirokini faollashtirish va oshirish bo'yicha muqobil prognoz ssenariyalari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovasiyalar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi rasmiy ma‘lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati** shundaki, dissertasiya ishida olingan xulosalar, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan O‘zbekistonda oliy ta‘lim xizmatlari sifatini oshirish va dunyo universitetlari reytingining 500 talikka kirish, mamlakat oliy ta‘lim tizimini 2030 yilga qadar jahon ta‘lim tizimiga integrasiyalashuviga bag‘ishlangan yaqin istiqboldagi mustaqil, maxsus ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkin.

Tadqiqot ishi materiallaridan oliy o‘quv yurtlarida “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Inson taraqqiyoti va aholi turmush darajasini oshirish”, “Ijtimoiy soha iqtisodiyoti”, “Ijtimoiy ta‘minotga kirish va ijtimoiy siyosat” fanlarining o‘quv dasturlarini takomillashtirish va o‘qitishda qo‘llanishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Universitetlar reytingini oshirish va oliy ta‘lim xizmatlarining sifatini yaxshilash muammolariborasida ishlab chiqilgan takliflar asosida:

nazariy - uslubiy yondashuvga ko‘ra “universitet raqobatbardoshligi” tushunchasining iqtisodiy mazmuni oliy ta‘lim xizmatlari ko‘rsatishda “ilm-fan – ta‘lim – ishlab chiqarish” o‘rtasidagi integratsion munosabatlar hamda xalqaro reyting ko‘rsatkichlarining moliyaviy-iqtisodiy, marketing, moddiy-texnik, kadrlar va ijtimoiy-siyosiy xususiyatlarini umumiyashtirish orqali takomillashtirilgan mualliflik tarifidan “Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta‘minotga kirish” nomli darslik va “Ijtimoiy siyosat” o‘quv qo‘llanmasini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2017 yil 24 avgustdagi 603-sonli buyrug‘iga asosan 603-103 va 2018 yil 14 iyundagi 531-sonli buyrug‘iga asosan 531-

016 raqamlar bilan ro'yxatga olingan nashr ruxsatnomalari). Tadqiqot ishi natijalari "Ijtimoiy siyosat" va "Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta'minotga kirish" fanlari mazmunini takomillashtirish va o'qitish sifatini oshirishga qaratilgan;

talabalarining tegishli ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklari) bo'yicha ishlab chiqarish amaliyotlarini tarmoq (soha)ning muayyan korxonalar va tashkilotlarida shartnoma asosida talabaning amaliyot o'tish sifatining "qoniqarli", "yaxshi" va "a'lo" darajalariga mos ravishda mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga nisbatan tegishli ravishda 50 foizgacha, 51-70 foizgacha, 71-100 foizgacha miqdordagi tabaqalashgan haq to'lash amaliyotiga o'tkazish taklifidan oliy ta'lim muassasalari bilan ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlik aloqalari orqali talabalar ishlab chiqarish amaliyotini maqsadli tashkil etilishini ta'minlashda foydalanilgan. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2024 yil 8 yanvardagi "Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining haq to'lanadigan malaka amaliyotini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi 11-sonli qarorining 3-punkt, 1-bandida o'z aksini topgan. foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Fan, ta'lim, va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasining 2024 yil 1 avgustdagi 09/6-sonli ma'lumotnomasi) Ushbu taklifni amaliyotga joriy etish natijasida oliy ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan talabalarining tegishli ta'lim yo'nalishlariga mos keladigan tarmoq (soha)ning muayyan tashkilotlari va korxonalarida amaliyot o'tashini ta'minlashga erishilgan;

oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tan olingan nufuzli xalqaro reyting tashkilotlarining amaldagi ro'yxatida birinchi "TOP-1 000" talikka kirgan oliy ta'lim tashkilotlarini navbatdagi kompleks davlat akkreditatsiyasidan ozod qilish taklifidan oliy ta'lim muassasalarini nufuzli xalqaro reyting tizimidagi o'rinlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqish jarayonida foydalanilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 3 iyuldagi "ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-200-sonli qarorining 3-punkt, v-bandida o'z aksini topgan. foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Budget va iqtisodiy islohotlar qo'mitasining 2024 yil 2 avgustdagi 04/1-13-21-sonli ma'lumotnomasi) Ushbu taklifni amaliyotga joriy

etilishi natijasida ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi bekor qilinib, kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimi joriy etilgan;

xalqaro tashkilotlarning ta'lim sohalari reytingida yuqori 200 talik ro'yxatiga kirgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining dasturi asosida maxalliy oliy ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlarini amaliy ixtisoslashuv trayektoriyalarini "Soft Skills"ga moslashtirish orqali qayta ishlab chiqish taklifidan oliy ta'lim tizimini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish va ta'lim sifatini oshirish amaliyotida foydalanilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 3 iyuldagi "ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-200-sonli qarorining 2-punkt, 2-xatboshida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Fan, ta'lim, va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasining 2024 yil 1 avgustdagi 09/6-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etish orqali bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari ilg'or xorijiy tajriba va mehnat bozorining kadrlarga bo'lgan ehtiyoji asosida qayta ko'rib chiqilishiga erishilgan;

Umumtalim maktablari bitiruvchilarini oliy ta'lim xizmatlari bilan qamrov darajasini oshirishning 2024-2030 yillarga mo'ljallangan bazaviy, pessimistik va optimistik prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan mamlakatimizda aholini oliy ta'lim xizmatlari bilan qamrov darajasini oshirish amaliyotida foydalanilgan. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 07.03.2018 dagi №9q/q va №22q/q-qarorining 2 bobining "b" bandida o'z aksini topgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Fan, ta'lim, va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasining 2024 yil 1 avgustdagi 09/6-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijada oliy ta'lim bilan qamrov darajasini O'zbekiston 2030 strategiyasida mo'ljallangan maqsadli vazifalarda ko'rsatkich darajaga yetish imkonini berdi;

2030 yilgacha bo'lgan davrda oliy ta'lim sifatini va talabalarni o'qitish samaradorligini oshirish bo'yicha muqobil stsenariya prognozlaridan uzoq muddatli

istiqbolda umumtalim maktablari bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqishda foydalanilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli farmonining 1-ilovasi, 7-maqsadining samaradorlik ko'rsatkichlarida o'z aksini topgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Budjet va iqtisodiy islohotlar qo'mitasining 2024 yil 2 avgustdagi 04/1-13-21-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etilishi natijasida o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish, ta'lim va tadqiqot uyg'unligini ta'minlash orqali iqtisodiyot tarmoqlari uchun ilg'or innovatsion ishlanmalar yaratish, talabalarda tizimli tahlil qilish, kreativ fikrlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobeasiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobeasiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ishlar, jumladan 1 ta monografiya jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 11 ta ilmiy maqolalar, jumladan, 3 tasi nufuzli xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya tarkibi kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 226 betni tashk